

**QADIMGI XORAZM VOHASINING SHUG'ORISH TIZIMLARI**

Normetov Bunyod Jasur o'g'li

Termiz davlat universiteti tarix fakulteti

Arxeologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi Xorazm vohasida shakllangan sug'orish tizimlari va ularning rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Asarda qadimgi dehqonchilik madaniyatining shakllanishida sug'orish tizimlarining o'rni, arxeologik topilmalar asosida yoritiladi. Xususan, Amudaryodan ozuqa oluvchi qadimiy kanallar – Gaukli, Shavat kabi inshootlar haqida ma'lumotlar berilgan. Sug'orish texnikasining tabiiy sharoitlarga moslashtirilganligi, qadimgi aholining muhandislik bilimlari va amaliy tajribasi ochib beriladi. Maqola Xorazm vohasining irrigatsion madaniyati orqali Markaziy Osiyoda qadimiy sivilizatsiyalarning taraqqiyotini tushunishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Uzbo'y va Sariqamish, Ya.G'. G'ulomov va B.V. Andrianov, Amirobod, Tozabog'yop, Gaukli, Shavat, **Qo'yliq-ariq, Yakkaariq, Bo'zariq, Chandir-ariq, Guliston arig'i**, Xorazm Arxeologik Ekspeditsiyasi

Kirish:

Qadimgi Xorazmda sug'orish tizimlari rivoji miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda boshlangan bo'lib, bu davr Xorazmda dastlabki yirik dehqonchilik madaniyatlarining shakllanishiga to'g'ri keladi. Amudaryo daryosining quyi oqimidan foydalanilgan bo'lib, suv chiqarish asosan tabiiy jarliklar va daryo qo'ltig'laridan boshlanardi. Vohaning geografik joylashuvi, iqlimi va suv resurslari qadimdan dehqonchilik madaniyati va shaharsozlik jarayonlarining asosini tashkil qilgan. Ayniqsa, Amudaryoning o'zani, uning tarixiy o'zgarishlari va sug'orish tizimlari mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Mazkur tadqiqotda Xorazm vohasining tarixiy geografiyasi, Amudaryoning o'zani, sug'orish tizimlari va iqlim o'zgarishlari kontekstida olib borilgan ilmiy izlanishlar



tahlil qilinadi. Ushbu mavzu hududning ekologik, iqtisodiy va demografik rivojlanishini tushunishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism:

Xorazm vohasi va Amudaryo o'zanlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar uzoq tarixga ega bo'lib, bu boradagi dastlabki ma'lumotlar Abu Rayhon Beruniy asarlarida uchraydi. Beruniy Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilishi haqidagi fikrni ilgari surgan bo'lsa-da, bu g'oya faqat XX asrning 50-yillarida Uzbo'y va Sariqamish havzalarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida ilmiy asosga ega bo'ldi. Ya.G'. G'ulomov va B.V. Andrianovlarning tadqiqotlari Xorazmning sug'orish tizimlari va geografik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ular Amudaryoning quyi oqimidagi dehqonchilik madaniyati va sun'iy sug'orish tizimlarining shakllanish jarayonlarini tahlil qilganlar. Xorazm vohasining Eng qadimgi irrigatsiya yodgorliklari: Amirobod madaniyati (miloddan avvalgi II ming yillik), Tozabog'yop madaniyati (miloddan avvalgi IX–VIII asrlar). Bu joylarda qadimgi ariq va kanal izlari, suv taqsimlagich inshootlar, hovuz va to'g'on qoldiqlari topilgan. Qadimgi Xorazmdagi sug'orish tizimi bir necha asosiy elementlardan iborat bo'lgan. Ya'ni kata kichik kanallar, yoplar, ariqlar, to'g'onlar tizimi. Bu kanallar uzunligi 50–100 km gacha cho'zilgan bo'lib, ularning eni 10–20 metr, chuqurligi esa 2–3 metrga yetgan. Yirik kanallardan suv olinib, kichik ariqlar orqali dalalarga tarqatilgan. Bu ariqlar ichida **Suv taqsimlovchi tugunlar, Oqarma tizimlar** (ortiqcha suvni chiqarish uchun), **Bo'g'ma qurilmalar** bo'lgan. Quyidagi kanallar Xorazm vohasining irrigatsion tizimi asosini tashkil qilgan: **Tozabog'yop kanali** eng qadimgi sug'orish tizimlaridan biri (mil. avv. IX–VII asrlar). Amudaryoning qadimgi irmoqlaridan suv olib, Janubiy Xorazmni sug'organ. Kanal atrofida **Tuproqqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Ayazqal'a** kabi yirik shaharlar paydo bo'lgan. **Gaukli-yop (Gaukli-kanal)** taxminan mil. avv. III asrda faoliyat yuritgan. Kanal uzunligi 100 km atrofida bo'lgan. Qadimgi Xorazmning iqtisodiy markazlaridan biri bo'lgan hududni sug'organ. Katta kanallardan suv olinib, **ariqlar** orqali har bir qishloq va dehqon xo'jaliklariga yetkazilgan. Xorazmda qadimda va hozirda ham **yuzlab ariq va tarmoq ariqlar** mavjud bo'lgan. Ularning ayrimlari



quyidagilar: **Qo‘yliq-ariq, Yakkaariq, Bo‘zariq, Chandir-ariq, Guliston arig‘i kabilar.** Har bir yirik yop yoki kanalga 10 dan ortiq kichik ariq ulangan bo‘lib, bu tarmoqlar keng dalalarni sug‘organ. Sug‘orish tizimlari Xorazmda shaharlar va mustahkam ijtimoiy tuzumlarning vujudga kelishiga asos bo‘lgan. Bugungi kunda Xorazm vohasida foydalanilayotgan asosiy kanallar: **Shovot magistral kanali** Amudaryodan suv oladi. Shovot tumani va Urganch yaqinidagi hududlarni sug‘oradi. Uzunligi 150 km ni tashkil etadi. Shovot kanali qadimgi **Gaukli-yop** kanal tizimining davomi yoki izidan qurilgan bo‘lishi ehtimoli katta. **Palvan kanali** Palvanqul suv inshootidan boshlanadi. Xiva, Urganch va boshqa tumanlarga xizmat qiladi. **Tuyamo‘yin suv inshooti va tarmoq kanallari** Tuyamo‘yin GES orqali boshqariladi. Kanal tarmoqlari orqali suv zarur hududlarga uzatiladi. S.P. Tolstov va Xorazm Arxeologik Ekspeditsiyasi (1937–1960-yillar) **80 dan ortiq qadimiy kanal va ariq izlarini** topgan. **10 ming gektardan ortiq** qadimiy sug‘orilgan yerlar aniqlandi. Ayrim qadimiy ariqlar va yoplar **8–10 km uzunlikda** bo‘lib, aholi punktlari va qishloq xo‘jaligi maydonlarini o‘zaro bog‘lagan. V.I. Vayinberg esa vohaning ekologik va paleogeografik tarixini, iqlim o‘zgarishlari va migratsiya jarayonlarini chuqur o‘rgangan. Uning ishlari Amudaryo va Sirdaryoning qadimgi o‘zanlari, Orol-Kaspiy hududlarining iqlim rekonstruksiya va etnogeografik masalalarni o‘z ichiga oladi. V.I. Vayinberg Xorazm vohasining mil.avv. VII asrdan milodiy VIII asrgacha bo‘lgan davrini ekologik va paleogeografik jihatdan chuqur tahlil qilgan va har bir masala tarixshunosligini ham yoritgan. Uning tadqiqot ishida ham Amudaryoning o‘zanlari, Uzbo‘y, sharqiy Kaspiy dengizi qirg‘oqlari hududlari, Sirdaryoning qadimgi o‘zanlari masalalari XX asrning ikkinchi yarmida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlarini jamlagan holda yoritib o‘tilgan. Orol bo‘yi hududlari iqlimining o‘zgarishlari masalalariga alohida to‘htalgan. Xorazm vohasida yashagan turli qabilalarning joylashgan yerlari, ko‘chib yurish jarayonlari ham bayon qilingan. Geografik ma’lumotlar yozma manbalardagi ma’lumotlar asosida ham tahlil qilinib, etnogeografiya masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Amudaryo o‘zanlari xaritasi, qadimgi qabilalarning geografik joylashgan hududlari xaritasi ishlanib, asarga ilova qilingan.

**Xulosa:**

Qadimgi Xorazm vohasida shakllangan sugʻorish tizimlari bu hududda yuksak dehqonchilik madaniyati va rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy hayot mavjud boʻlganidan dalolat beradi. Amudaryo va uning irmoqlari asosida qurilgan kanallar, ariq va novlar qadimgi ajdodlarimizning tabiat bilan uygʻun yashash, suv resurslaridan oqilona foydalanish qobiliyatini namoyon etadi. Ushbu sugʻorish inshootlari nafaqat Xorazm, balki butun Markaziy Osiyo taraqqiyotiga katta taʼsir koʻrsatgan. Mazkur tizimlar bugungi kunda ham ilmiy va amaliy jihatdan oʻrganishga arzigulik qadimiy muhandislik merosi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARLAR ROʻYXATI:

1. Марказий Осиёда тарихий-маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари. Монография. -Т.: “Университет”, 2020. –Б. 236
2. Kidirniyazov M.-Sh. Materialnaya kultura gorodov Xorezma v XIII—XIV vekax. Nukus: Karakalpakstan, 1989.
3. Tolstov S. P., Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab, Toshkent, 1964
4. M. Matkarimov, Khorezm Republic: Davlat Tuzilishi, Nozirllari wa Itisodi, Urgench, 1993.
5. <https://uzreport.news/society/v-horezme-vedutsya-raskopki-samogo-drevnego-iz-otkryityih-hramov-zoroastrizma>
6. <https://podrobno.uz/cat/podrobno/uzbekskie-arkheologi-vozrodyat-odin-iz-drevneyshikh-gorodov-tsentralnoy-azii/>